

"O'zkimyosanoat" AJ Ochiqlik indeksi-2024 reytingida "yashil" ko'rsatkichni qayd etdi

// 25 April 2025 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-ochiqlik-indeksi-2024-reytingida-yashil-ko>

DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARIDA OCHIQLIK BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLARNING SAMARADORLIGI VA NATIJADORLIGINI BAHOLASHGA QARATILGAN
OCHIQLIK INDEKSI-2024



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHISH AGENTLIGI

AKSIYADORLIK JAMIYATLARI

1. "OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ	91,8
2. "O'ZAVTOSANOAT" AJ	89,3
3. "NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ	89,2
4. "UZBEKISTAN AIRWAYS" AJ	88,5
5. "ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARI" AJ	86,7
6. "O'ZBEKGIDROENERGO" AJ	84,8
7. "O'ZSUVA'MINOT" AJ	84,6
8. "O'ZAGROLIZING" AJ	82,4
9. "O'ZBEKISTON METALLURGIYA KOMBINATI" AJ	81,2
10. "O'ZBEKNEFTGAZ" AJ	81,1
11. "HUDUDGAZTA'MINOT" AJ	74,9
12. "O'ZKIMYOSANOAT" AJ	73,7
13. "O'ZBEKKO'MIR" AJ	71,8
14. "O'ZBEKTELEKOM" AK	69,9
15. "UZTRANSGAZ" AJ	69,9
16. "O'ZBEKISTON MILLIY ELEKTR TARMOQLARI" AJ	68,3
17. "O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJ	67,6
18. "UZBEKISTAN AIRPORTS" AJ	59,6
19. "TOSHSHAHARTRANSXIZMAT" AJ	57,8
20. "O'ZAGROSUG'URTA" AJ	56,8
21. "HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" AJ	52,5
22. "YO'LQURILISH" AJ	47,1

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan davlat idoralari o'rtasida 2024-yil uchun ochiqlik indeksi natijalari e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-154-son Farmoniga muvofiq, 2024-yil yakunlariga ko'ra davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi asosida to'plangan barcha ko'rsatkichlar e'lon qilindi.

Ma'lumot o'rnida: Indeks 84 ta baholash mezonidan tarkib topgan 8 ta indikator asosida shakllantirilib kelinmoqda. Bu yilgi baholashda jami 98 ta ta respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari - vazirlik, qo'mita, agentlik, inspeksiyalar va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati qamrab olindi.

Baholash natijalariga ko'ra, 50 ta davlat organi "yashil" (2023-yilda 31 ta), 35 tasi "sariq" (43 ta) va 13 tasi "qizil" (29 ta) samaradorlik ko'rsatkichlarini qayd etdi.

Indeks natijalariga ko'ra, "O'zkimyosanoat" AJ 73,7 ball bilan "yashil" ko'rsatkichni qayd etdi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati